

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

QURBONOV DILSHODJON MAXAMADALIYEVICH

**SUDGA QADAR ISH YURITUVIDA QONUNIYLIKNI TA’MINLASHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.09 – Jinoyat-protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025

Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)
Content of the abstract of the doctoral (PhD) dissertation

Qurbonov Dilshodjon Maxamadaliyevich Sudga qadar ish yurituvida qonuniylikni ta’minlashni takomillashtirish ...	3
Курбонов Дилшоджон Махамдалиевич Совершенствование обеспечения законности на досудебном производстве	25
Kurbonov Dilshodzhon Makhamadalievich Improving the rule of law in pre-trial proceedings	47
E’lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	52

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

QURBONOV DILSHODJON MAXAMADALIYEVICH

**SUDGA QADAR ISH YURITUVIDA QONUNIYLIKNI TA’MINLASHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.09 – Jinoyat-protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyada B2024.3PhD/Yu1575 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida veb-sayti (www.mgixu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirazov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Xayriyev Nodirjon Isroilovich
yuridik fanlar doktori, professor

Babayev Akmal Abdulkarimovich
yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil 11-aprel kuni soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: +998971 230-32-71; faks: +99871 230-32-50; mgixu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: +99871 230-32-71; faks: +99871 230-32-50).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «25»-martda tarqatildi.

(2025-yil «24»martdagi «__»-raqamli reestr bayonnomasi).

M.X.Rustambayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

J.D.Axmedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.X.Zulfiqarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituvda qonun ustuvorligini ta'minlash zamonaviy davlatlarning demokratik rivojlanishining o'ziga xos mezoniga aylanib ulgurgan. Buni har yili dunyo mamlakatlari bo'yicha «The World Justice Project» (qonun ustuvorligi indeksi)ni nashr etilishi tasdiqlaydi. Shu bilan birga xalqaro tashkilotlar (BMT, YXHT, IHRT) faoliyati tufayli qonuniylik (huquq ustuvorligi)ning umumiy huquqiy tamoyil sifatida qabul qilish tendensiyasi ham kuzatilmoqda. Mazkur tashkilotlar qonun ustuvorligining muhim tomonini, birinchi navbatda, Konvensiya, Pakt va boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlar darajasida ishlab chiqishga harakat qilmoqdalar. Qonuniylikka rioya etilishi barcha insonlar uchun yagona bo'lgan asosiy qoidalar va qadriyatlardan iboratligi, u jinoyat ishlari bo'yicha muhim va ustuvor ahamiyatga egaligi, qonun normalari faqat mustaqil va xolis sudlar tomonidan berilishiga oid huquqiy qadriyatlar o'rnatilmoqda. Shu bilan birga, qonuniylik (huquq ustuvorligi) xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari qatoridan joy olgan bo'lib, 1948-yilgi Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi va 1950-yildagi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiyada ham o'z aksini topgan.

Jahonda XX asr o'rtalaridan boshlab qonuniylik (huquq ustuvorligi) doktrinasi millatlararo darajada rivojlanib, bugungi kunda modernizatsiya qilinmoqda va qonun ustuvorligiga rioya qilishning ahamiyati ortib bormoqda. Zamonaviy nazariyotchi olimlar qonuniylik haqidagi g'oyalarni boyitib, shaxs huquqlari faqat qonun bilan cheklanishi, tergov-sud faoliyatida qonun ustuvorligiga rioya etish shartligi, sudning inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda alohida ahamiyatga egaligiga qaratilgan ilmiy izlanishlarni amalga oshirmoqdalar. Shu bilan birga, ushbu huquqiy hodisaning maqsadi va mazmuniga nisbatan fikrlar va yondashuvlar doirasi juda keng — qonun ustuvorligini huquqni tiklash vositasi, davlatning ichki ishi, uning boshqa bir qator huquqiy hodisalardan farqlanishi, qonun ustuvorligini ajratish, uni qat'iyon rad etishgacha bo'lgan qarashlar mavjud.

O'zbekistonda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi asosida sud-huquq tizimini isloh qilish, shaxs huquq va erkinliklariga rioya etilishini hamda qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda jinoyat ishlari bo'yicha ish yurituvi jarayonida qonuniylikka qat'iy rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan bir qator muhim ahamiyatga ega ishlar, xususan, shaxs huquqlarini cheklaydigan choralarni qo'llashga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazilishi, xususiy ayblov doirasining kengaytirilishi va boshqa bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu bilan birga qayd etish joizki, amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining muvaffaqiyati mazkur sohada faoliyat olib borayotgan organlar va mansabdor shaxslarga chambarchas bog'liq. Bu esa jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar jinoyat protsessining vazifalari to'liq amalga oshishi uchun mas'ulligini va protsessual faoliyat davomida qonunning barcha talablari bekamu-ko'st bajarilishi shartligini keltirib chiqaradi. Ammo sud-tergov amaliyotini o'rganish ko'rsatilgan vazifalarni bajarishda bir qator salbiy holatlarga yo'l

qo'yilayotganligini ko'rsatadi. JPK normalari asosida xolisona tergov o'tkazilishini ta'minlamaslik, uni zo'rovonlik bilan olib borish va cho'zish orqali fuqarolarni sarson qilish kabi salbiy amaliyotga batamom chek qo'yilmagan. Yuqorida keltirilgan salbiy holatlarning negizida bir tomondan qonunni qo'llovchi xodimlar tomonidan yo'l qo'yilayotgan salbiy harakatlar yotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan huquqni qo'llash tizimi va uni tartibga soluvchi qonun va normativ-huquqiy hujjatlarning normalaridagi kamchiliklar yotadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero agarda qonun normasining o'zida subyektiv yondashuvga o'rin qoldirilgan yoki u nomukammal shakllantirilgan yoxud uning o'zida qarama-qarshiliklar bo'ladigan bo'lsa, bularning o'zi qonunning buzilishi va unga to'la rioya qilinmasligi uchun sharoit yaratadi. Bu holat sudga qadar ish yurituvda qonuniylikka rioya etilishi amaliyotini chuqur va tanqidiy o'rganilishi zarurligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (1994), «Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida»gi (2012), «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi (2016), «O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to'g'risida»gi (2020), «Prokuratura to'g'risida»gi (2001) qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-sonli «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 10-avgustdagi PF-6041-sonli «Sud-tergov faoliyatida shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2023-yil 16-yanvardagi PF-11-sonli «Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-sonli «O'zbekiston – 2030» strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmon va Qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning ilmiy o'rganilganlik darajasi: Sudga qadar ish yurituv bosqichida qonuniylikni ta'minlashning nazariy, huquqiy va amaliy muammolarining ayrim jihatlariga G.Abdumajidov¹, B.A.Azizxodjeyev, B.T.Akramxodjeyev, L.Astanova, D.B.Bazarova, A.K.Zakurlayev, Z. S. Zaripov, D. Yu. Kamalxodjeyev, A.A.Matchanov, D.M.Mirazov, B. A. Mirenskiy, F.M.Muxitdinov, Z. F. Inog'omjonova, A.X.Raxmonqulov, Yu.S.Pulatov, B.X.Po'latov, A.Polvonov, B.A.Rajabov, B.N.Rashidov, M.X.Rustambayev, T.R.Saitbayev, G.Z.Tulaganova, X.A.Turabbayev, U.A.Tuxtasheva, N.I.Xayriyev va X.J.Ergashev N.M.Qo'shayev kabi olimlarning ilmiy ishlarida qisman ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiya doirasida qonuniylikka rioya etish masalalarini Ye.V.Bateyeva, Ye.V.Bestujeva, O.K.Biktasov, N.V.Veretennikov, D.A.Grishin, V.V.Demidov,

¹ Ushbu va boshqa olimlarning ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan

S.A.Denisov, A.F.Yefremov, S.P.Jeltobryuxov, M.Yu.Zinovyeva, R.M.Isayeva, K.B.Kalinovskiy, I.B.Lapin, A.B.Lisyutkin, A.B.Lomidze, A.B.Ovod, N.V.Pashkova, A.V.Pomogalov, D.A.Ponomarev, I.A.Popov, V.A.Potapov, N.I.Privezensev, T.K.Primak, Ye.A.Pushkarev, V.I.Radchenko, O.P.Sauyak, A.V.Seduxin, M.S.Strogovich, G.V.Tarasova, D.V.Tetkin, R.G.Uskovlarning ishlarini ko'rsatish mumkin.

Qonuniylik va unga rioya etish masalalari yuzasidan doktorlik dissertatsiyalari darajasida o'rgangan olimlarning ilmiy ishlarini qayd etishda B.C.Afanasev tomonidan ichki ishlar organlari materiallari asosida qonuniylikni ta'minlashning nazariy va amaliy masalalari, A.M.Baranov jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituvda qonuniylik, H.A.Vlasova qonuniylikka rioya etish masalalarini jinoyat protsessida sudga qadar ish yurituvining shakllarini takomillashtirish muammolari, L.M.Volodina jinoyat protsessida shaxs huquqlarini ta'minlash mexanizmi doirasida qonuniylik, H.L.Granat o'z navbatida sudga qadar ish yurituvda qonuniylikni ta'minlashning huquqiy, ahloqiy-psixologik asoslarini, M.Ye.Tokareva esa qonuniylikning zamonaviy muammolari va sudga qadar ish yurituv bosqichlarida prokuror nazoratining muammolarini o'rganilganligini qayd etish mumkin.

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ishlarida asosan, sudga qadar ish yurituvi organlarining faoliyatida qonuniylikni ta'minlashda prokuror nazorati, jinoyat protsessida tergovchining vakolatlari yoritilgan bo'lib, zamonaviy o'zgarishlardan kelib chiqqan holda sudga qadar ish yurituvi bosqichida qonuniylikni ta'minlashning nazariy, huquqiy va amaliy muammolarini qayta ko'rib chiqishga kam e'tibor berilgan. Biroq aynan shu mavzu yuzasidan alohida tadqiqot ishi olib borilmaganligi, sudga qadar ish yurituv bosqichida qonuniylikni ta'minlashning nazariy, huquqiy va amaliy muammolari, ularni bartaraf etish mexanizmlari va tartibi hamda bu boradagi xorij tajribasi tadqiq etilmagan, ya'ni mazkur muammo kompleks o'rganilmagan.

Ayni vaqtda respublikamiz sud-huquq tizimida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi, inson huquqlari va erkinliklariga, ularning huquqiy himoyasiga katta e'tibor qaratayotganligi munosabati bilan muammoning dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Bu esa sudga qadar ish yurituviga jalb qilingan shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan bog'liq mezonlarni yagona dissertatsiyaviy tadqiqot sifatida o'rganish uchun muhim amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi. Muammoning dolzarbligi va hali yetarli darajada o'rganilmaganligi dissertatsiya mavzuini tanlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Sudga qadar ish yurituvda qonuniylikni ta'minlashni takomillashtirish» nomli loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi sudga qadar ish yurituv bosqichida qonuniylikni ta'minlashni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

sudga qadar ish yurituvda qonuniylik va uni ta'minlashning ijtimoiy zaruriyatini o'rganish;

sudga qadar ish yurituvda qonuniylikni ta'minlashning protsessual vositalarining huquqiy tartibga solinishini tahlil qilish;

sudga qadar ish yurituvda qonuniylik buzilishlarining shakllari va turlarini tasniflash;

tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida qonuniylikni ta'minlash xususiyatlarini o'rganish;

sudga qadar ish yurituv bosqichida isbotlashni amalga oshirishda qonuniylikka rioya etilishini ta'minlashning xususiyatlarini tadqiq etish;

sudga qadar ish yurituv bosqichida protsessual majburlov choralarini qo'llashda qonuniylikni ta'minlanishini ilmiy tahlil etish;

sudga qadar ish yurituv organlari tomonidan shaxsni jinoyat ishi bo'yicha gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilishda qonuniylikka rioya etish muammolarini aniqlash;

xorijiy davlatlarda sudga qadar ish yuritishda qonuniylikni ta'minlashni huquqiy tartibga solinishi va ta'minlash tajribasini tahlil etish;

sudga qadar ish yurituvda qonuniylikni ta'minlashni mustahkamlash usullari va yo'llari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va tergov bo'linmalarida sudga qadar ish yurituvini amalga oshirishda qonuniylikni ta'minlashda yuzaga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini sudga qadar ish yurituv bosqichida qonuniylikni ta'minlash yuzasidan tergovga qadar tekshiruv organlari mansabdor shaxslarining, surishtiruvchi va tergovchilarning protsessual faoliyati va uning huquqiy maqomini tartibga soluvchi qonun normalari, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tizimli-tuzilmaviy, formal-mantiqiy, tarixiy, statistik, aniq-sotsiologik, umumilmiy, qiyosiy usullardan foydalangan. Aniq metodik darajada qo'yilgan maqsadga jinoyat protsessi, kriminalistika, boshqaruv asoslariga oid ilmiy manbalardan kompleks foydalanish, shuningdek idoraviy hujjatlar, statistik hisobotlarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish, surishtiruvchilar, tergovchilar, prokurorlar, sudlar hamda jamoatchilik o'rtasida anketa so'rovlari o'tkazish orqali amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jinoyat ishlarini yuritishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi, istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi, o'zi va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi bilan bog'liq Konstitutsiyada belgilangan shaxsiy huquq va erkinliklarini buzilishi protsessual qonun normalarining jiddiy buzilishi deb e'tirof etish zarurati asoslab berilgan;

tergovga qadar tekshiruv materialida yoki jinoyat ishi bilan saqlanayotgan ashyoviy dalillar ish bir tergovga qadar tekshiruv organidan boshqasiga yoki surishtiruv, dastlabki tergov organiga yoki bir surishtiruv organidan boshqa

surishtiruv yoxud dastlabki tergov organiga yoki bir tergovchidan boshqa tergovchiga, shuningdek prokuror yoki sudga yuborilganda yoxud bir suddan boshqa sudga o'tkazilganda ish bilan birga topshirilishi, shuningdek bu haqda har bir topshirilayotgan narsa bo'yicha ashyoviy dalillarni hisobga olish kitobida tegishli yozuv kiritilishi, belgilangan tartibda ashyoviy dalil deb e'tirof etilmagan narsalar jinoyat ishi bilan birga topshirilishi mumkin emasligi asoslab berilgan;

surishtiruv yoki dastlabki tergovni to'xtatish to'g'risida qaror chiqarilayotganida unda to'xtatilayotgan ish bo'yicha olib qo'yilgan ashyoviy dalillar va boshqa narsalarning saqlanayotgan joyini belgilash, ushbu obyektlar, maxsus saqlashga topshirilishi lozim bo'lmasa, to'xtatilgan jinoyat ishi surishtiruv yoki dastlabki tergov organida saqlab turilgan vaqt davomida surishtiruv yoki dastlabki tergov yuritilgan joyda saqlanadi va ish boshqa surishtiruv yoki dastlabki tergov organiga topshirilayotgan vaqtda ish bilan birga topshirilishi lozimligi asoslab berilgan.

jinoyat ishi bo'yicha daliliy ashyo sifatida olingan narsa va buyumlar talon-taroj bo'lishi va boshqa tashqi ta'sirlarini oldini olish uchun ushbu narsalarni topshirilayotganda kamida ikki nafar xolis ishtirok etishi yoki ushbu jarayon videoyozuv orqali qayd etilishi lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijasida sudga qadar ish yurituvida qonuniylikni ta'minlashni takomillashtirishni nazarda tutuvchi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasi ishlab chiqilgan;

IIVning "Sudga qadar ish yurituvini amalga oshirishda qonuniylik buzilishlarini hisobga olish tartibi to'g'risidagi Nizom" loyihasi ishlab chiqilgan;

dissertatsiyaning natijalari O'zbekiston Respublikasi IIVning bir qator normativ-huquqiy hujjatlarining loyihalarini tayyorlashda, ularni yanada takomillashtirishda inobatga olingan va huquqni qo'llash amaliyotiga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Sudga qadar ish yurituvi bosqichida qonuniylikni ta'minlashning xususiyatlarini o'rganish maqsadida muallif tomonidan 85 nafar tergovchi, 110 nafar ichki ishlar bo'limlari rahbarlari, 35 nafar prokurorlar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlarning natijalari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining ichki ishlar organlarida sudga qadar ish yurituvini amalga oshirish ustidan nazoratga doir bo'lgan oxirgi besh yillik statistik ma'lumotlari va IIV huzuridagi Tergov departamentining sudga qadar ish yurituvini amalga oshirishda qonuniylikka rioya etilishiga doir hisobotlar, statistik ma'lumotlar, umumlashmalar va tahliliy ma'lumotlari ilmiy ish natijalarining ishonchliligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* shundan iboratki, ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, unda bildirilgan takliflar va tavsiyalardan tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni takomillashtirishda, sohaga oid nazariy (doktrinal) bilimlarni boyitish va yangi ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* shundaki, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga, "Prokuratura to'g'risida"gi qonuniga, Bosh prokuraturaning, DXXning va IIVning sudga qadar ish yurituvini organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlash bo'yicha buyruq va yo'riqnomalariga

o'zgartish va qo'shimchalar kiritishda, shu masala yuzasidan yo'riqnoma, qo'shma ko'rsatma, amaliy va metodik qo'llanmalar ishlab chiqishda, sudga qadar ish yurituvi organlarining amaliy faoliyatida, qonunlarga sharhlar tayyorlashda hamda yuridik oliy ta'lim jarayonida darslik, o'quv qo'llanmalar tayyorlashda, shuningdek «Jinoyat-protsessual huquqi», «Kriminalistika», «Dastlabki tergov», «Tergovga qadar tekshiruv» va «Surishtiruv» «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar», «Tergov apparatlari faoliyatini boshqarish», «Ichki ishlar organlari tergov bo'linmalari faoliyatini tashkil etish» fanlaridan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishda, ushbu fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik materiallar tayyorlashda qo'llash mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sudga qadar ish yurituvda qonuniylikni ta'minlashni takomillashtirishga qaratilgan izlanishlar bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

jinoyat ishlarini yuritishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi, istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi, o'zi va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi bilan bog'liq Konstitutsiyada belgilangan shaxsiy huquq va erkinliklarini buzilishi protsessual qonun normalarining jiddiy buzilishi deb e'tirof etish yuzasidan takliflar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyun kunidagi 16-son "Odil sudlovni amalga oshirishda o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi normalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorini 16-bandini uchinchi xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 29-sentabr kunidagi 11/16-23 son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi majburiy keltirish to'g'risidagi qaror (ajrim)ni ijro etish tartibini belgilashga xizmat qilgan;

tergovga qadar tekshiruv materialida yoki jinoyat ishi bilan saqlanayotgan ashyoviy dalillar ish bir tergovga qadar tekshiruv organidan boshqasiga yoki surishtiruv, dastlabki tergov organiga yoki bir surishtiruv organidan boshqa surishtiruv yoxud dastlabki tergov organiga yoki bir tergovchidan boshqa tergovchiga, shuningdek prokuror yoki sudga yuborilganda yoxud bir suddan boshqa sudga o'tkazilganda ish bilan birga topshirilishi, shuningdek bu haqda har bir topshirilayotgan narsa bo'yicha ashyoviy dalillarni hisobga olish kitobida tegishli yozuv kiritilishi, belgilangan tartibda ashyoviy dalil deb e'tirof etilmagan narsalar jinoyat ishi bilan birga topshirilishi mumkin emasligini belgilash yuzasidan takliflar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Oliy sudi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasining 2021-yil 21-oktabrdagi "Surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni olib qo'yish (qabul qilish), hisobga olish, saqlash, berish, sotish, qaytarish, yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qo'shma qarorini 45-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 15-sentabrdagi 28/1-111-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida ashyoviy dalillar hisobga olish, saqlash, berish tartibini belgilashga xizmat qilgan;

surishtiruv yoki dastlabki tergovni to'xtatish to'g'risida qaror chiqarilayotganida unda to'xtatilayotgan ish bo'yicha olib qo'yilgan ashyoviy dalillar va boshqa narsalarning saqlanayotgan joyini belgilash, ushbu obyektlar, maxsus saqlashga topshirilishi lozim bo'lmasa, to'xtatilgan jinoyat ishi surishtiruv yoki dastlabki tergov organida saqlab turilgan vaqt davomida surishtiruv yoki dastlabki tergov yuritilgan joyda saqlanadi va ish boshqa surishtiruv yoki dastlabki tergov organiga topshirilayotgan vaqtda ish bilan birga topshirilishi lozimligi yuzasidan takliflar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Oliy sudi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasining 2021-yil 21-oktabrdagi "Surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni olib qo'yish (qabul qilish), hisobga olish, saqlash, berish, sotish, qaytarish, yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qo'shma qarorini 56-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 15-sentabrdagi 28/1-111-son dalolatnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida olib qo'yilgan ashyoviy dalillar va boshqa narsalarning saqlash tartibini belgilashga xizmat qilgan.

ashyoviy dalillarni topshirilayotganda kamida 2 nafar xolis ishtirok etishi yoki ushbu jarayon videoyozuv orqali qayd etilishi borasidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Oliy sudi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasining 2021 yil 21 oktabrdagi "Surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni olib qo'yish (qabul qilish), hisobga olish, saqlash, berish, sotish, qaytarish, yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qo'shma qarorini 63-bandini to'rtinchi xatoshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 15-sentabrdagi 28/1-111-son dalolatnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi sudga qadar ish yurituvda daliliy ashyolarni talon-taroj qilinishi oldini olishga va shu orqali qonuniylikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari, davra suhbatlari va seminarlarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shundan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta (shundan 6 ta respublika va 2 ta xorijiy) jurnallarda maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shuningdek ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 142 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprabatsiyasi, natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiya hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Sudga qadar ish yurituvda qonuniylikni ta'minlashning nazariy-huquqiy asoslari”**ni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda sudga qadar ish yurituvda qonuniylik va uni ta'minlashning ijtimoiy zarurligi, sudga qadar ish yurituvda qonuniylikni ta'minlashning protsessual vositalarining huquqiy tartibga solinishi o'rganilgan, sudga qadar ish yurituvda qonuniylik buzilishlarining shakllari va turlari tasniflangan.

Jamiyat hayotida va davlat boshqaruvida qonuniylikning o'rni va zarurligi tarixdan o'zbek davlatchiligi va ilmiy nazariy qarashlarda o'zining aksini topgan. Ushbu tushuncha Amir Temur, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk mutafakkirlar, faylasuflar va davlat arboblarning asarlari va ilmiy qarashlarida o'zining aksini topgan.

Jumladan buyuk sarkarda Amir Temur *“Qaerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi”*¹, degan edi. Darhaqiqat, *davlat boshqaruvining asosiy prinsiplaridan biri qonuniylik bo'lib, u huquqiy munosabatlarni amalga oshirilishida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda ushbu prinsipni ta'minlash uchun fuqarolar, davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonunlarga qat'iy amal qilishlari lozim.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga binoan, *“O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar”*².

O'zbekiston Respublikasida qonuniylik bir necha kafolatlar tizimi bilan ta'minlanadi. Jumladan, qonuniylikning yuridik kafolatlariga quyidagilar kiradi: huquqiy jihatdan mustahkamlanishi lozim bo'lgan barcha ijtimoiy munosabatlarning qonunlar yoki qonun osti hujjatlari bilan normativ tartibga solinganligi, qonunlarga rioya etilishini nazorat qiluvchi maxsus organlar, shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlarining samarali faoliyati, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga putur yetkazgan mansabdor shaxslarni yuridik javobgarlikka tortish. Qonuniylikning

¹ Amir Temur tuzuklari. –T., 1992. –B.9

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi \ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son

xalqaro kafolatlariga quyidagilar kiradi: xalqaro tashkilotlar, BMT ixtisoslashtirilgan organlarining turli mamlakatlarda inson huquqlariga rioya etilishini nazorat qilish borasidagi faoliyati, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini mustahkamlovchi qonun hujjatlari buzilayotgan mintaqalarga yuqorida zikr etilgan tashkilotlar va organlar vakillarining nazorat safarlari, fuqarolarning o'z buzilgan huquqlarini himoya qilishni so'rab xalqaro organlarga murojaat etish huquqi.

Sudga qadar ish yurituvchi bosqichida qonuniylikni ta'minlash jinoyat protsessining mazkur bosqichida huquqiy normalar qanday bajarilayotganligi, qonun talablarining bajarilishi majburiylik hamda huquqiy munosabatlarning qonunga muvofiq bo'lishidan tashkil topadi. Sudga qadar ish yurituvchi qonuniylik jinoyat-protsessual shakl va protsessual kafolatlar tizim orqali ta'minlanadi.

Yuridik adabiyotlarni o'rganishlar natijasida muallif protsessual shakl tushunchasi va mazmuni bo'yicha yagona yondashuv yoki fikr mavjud emas, degan xulosaga kelgan. Bunda Ye.N.Nikiforova va G.Z.To'laganovlar tomonidan berilgan tushunchada protsessual shakl juda tor doirada berilgan bo'lsa, A.P.Рыжков va K.F.Gusenkovlar tomonidan keltirilgan tushuncha esa juda keng qamrovli bo'lib ketgan, zero protsessual shakl jinoyat protsessining barcha institutlarini o'z ichiga olishi an'irimaholdir. F.M.Muxitdinov va P.A.Lupinskaya tomonidan berilgan ta'rifning o'z mohiyatiga ko'ra aniqroq. Shundan kelib chiqqan holda, dissertantning fikricha, *“Protsessual shakl deganda jinoyat ishini qo'zg'atish, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish, materiallarni tergovga tegishlilik bo'yicha yuborish, protsessual va tergov harakatlarini o'tkazish, shaxsning protsessual maqomini belgilash yoki o'zgartirish, ish bo'yicha oraliq yoki yakuniy qarorlarni qabul qilishga qaratilgan xujjatlarning qonunda belgilangan talablarga to'la mos kelishini ta'minlovchi protsessual vositalar tushunilishi kerak.* Protsessual shaklga rioya etmaslik qonun buzilishiga olib keladi va oqibatidan kelib chiqqan holda jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik yoki intizom buzilishi deb tan olinadi.

Muallifning fikricha, *sudga qadar ish yurituvchi jinoyat-protsessual qonunchilikda ishda ishtirok etayotgan jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, fuqaroviy javobgar, guvohlar, xolislar va protsessning boshqa ishtirokchilarini huquqlari va majburiyatlari alohida normalarda aniq ravishda tartibga solingan va ishni yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning zimmasiga ushbu shaxslarning o'zining ona tilida ko'rsatuvlar berish, muayyan shaxslarning ko'rsatuv bermasligi mumkinligi, himoyalani huquqi, himoyachi bilan xoli uchrashishi, ish materiallari bilan tanishish, iltimosnomalar kiritish, muayyan hollarda ishda qonuniy vakil ishtirok etishi tartibga solinganligi protsessual kafolatlarini tashkil etadi.*

Sudga qadar ish yurituvchi bosqichida qonuniylikni ta'minlashda qonun bilan belgilangan jinoyat ishlarini to'g'ri qo'zg'atish va tergov qilishda jinoyat protsessining vazifalarini amalga oshirish vositalari – protsessual kafolatlar muhim o'rin tutadi. Bunda, jinoyat protsessual qonun nafaqat protsess ishtirokchilarining, balki protsessual faoliyat doirasiga jalb etiladigan boshqa shaxslarning ham shaxsiy hayotini himoya qiladigan kafolatlarini o'z ichiga oladi. Masalan, tergovchi tintuv paytida ma'lum bo'lib qolgan, mazkur xonadonda yashayotgan shaxsning yoki boshqa shaxslarning shaxsiy hayotiga taalluqli holatlarni oshkor qilmaslikka hamda

nafaqat tergov harakatlarida ishtirok etadigan shaxslarning, balki atrofdagi shaxslarning qadr-qimmatini va sha'nini kamsitadigan harakatlarga yo'l qo'ymaslikka doir choralar ko'rishi shart (JPKning 17, 18, 88, 161-162, 353-m.).

Dissertantning fikricha, sudga qadar ish yurituvida qaysi harakatlari qonuniylik buzilishi deb tan olinishi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun eng avvalo sudga qadar ish yurituvida qonuniylikning buzilishi tushunchasini mazmuni va mohiyatini ko'rib chiqish va uning aniq va to'liq tushunchasini shakllantirish maqsadga muvofiq. Chunki qonuniylikni buzilishi – sudga qadar ish yurituvining maqsadlariga erishilishiga to'sqinlik qiladigan holatdir. Zero, *qonuniylikni buzilishi bu huquqni qo'llashdagi xatolik bo'lishi mumkin bo'lgan oddiy harakat emas, balki huquqqa xilof harakatlar tizimidir.* Shuning uchun ham shaxsiy munosabatlarda yo'l qo'yilgan qo'pollik, e'tiborsizlik, ahloq-odob qoidalarini buzish qonuniylikni buzilishi deb baholanmasligi mumkin. Lekin agarda yuqorida keltirilgan salbiy holatlar sudga qadar ish yurituvini bosqichida amalga oshirilsa, unda albatta bu – shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini hurmat qilish prinsipini davlat organi mansabdor shaxs tomonidan buzilishi, demak bu – qonuniylik buzilishidir.

Dissertant o'rganishlar asosida, sudga qadar ish yurituvini organlarning faoliyatida qonuniylik buzilishiga quyidagicha ta'rif bergan: *“Sudga qadar ish yurituvini organlarining faoliyatini amalga oshirishi davomida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazgan (zarar yetkazish xavfini tug'dirgan) sudga qadar ish yurituvini organlarining mansabdor shaxslari tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarishi davomida sodir etilgan har qanday huquqqa xilof va ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) qonuniylik buzilishi deb tan olinadi”.*

Sudga qadar ish yurituvini organlarining qonuniylik buzilishi turlari va shakllarini tartibga soluvchi idoraviy-normativ hujjatlarini tahlil qilish asosida, hamda ularning ba'zilarini birlashtirish, boshqalarini ajratish, aniqlashtirish natijasida, muallif, sudga qadar ish yurituvini bosqichida qonuniylikni buzilishining quyidagi turlarini ajratib ko'rsatgan:

- 1) noqonuniy (asossiz) ravishda jinoiy javobgarlikka tortish;
- 2) jinoyatni hisobdan yashirish;
- 3) sudga qadar ish yurituvining muddatlarini buzish;
- 4) noqonuniy va asossiz ravishda ushlab turish, qamoqqa olish;
- 5) jinoyat ishining materiallarini soxtalashtirish, mansab soxtakorligi;
- 6) jinoyat ishini qo'zg'atishni asossiz rad etish;
- 7) jinoyat ishini qonunda ko'rsatilmagan asoslar bo'yicha, noqonuniy ravishda to'xtatish, tugatish;
- 8) xizmatga sovuqqonlik, xizmat vazifalarini bajarmaslik;
- 9) fuqarolarga (gumon qilinuvchi, ayblanuvchilarga) qo'pol, tahqirlovchi munosabatda bo'lish;
- 10) qiynoqqa solish, tergovda zo'rovonlik ishlatish;
- 11) tergovni olib borishning noqonuniy usullarini qo'llash (bosim o'tkazish, tovlamachilik qilish, o'zini ayblash, majburlash, yolg'on ko'rsatuvlar berishiga majburlash, psixologik zo'rlik ishlatish);
- 12) tintuv, olib qo'yish va boshqa tergov harakatlarini noqonuniy o'tkazish;

- 13) tergovdan yashirinmagan shaxslarga nisbatan qidiruv e'lon qilish;
- 14) mansab vakolatlarini suiste'mol qilish;
- 15) poraxo'rlik (tamagirlik, pora olish, pora berish, pora olish berishda vositachilik qilish);
- 16) jinoyatchi unsurlar bilan birikib ketish;
- 17) ayrim tergovchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar (odam o'ldirish, nomusga tegish, bosqinchilik, talonchilik, o'g'rilik).

Dissertatsiyaning 2-bobida **“Sudga qadar ish yurituvda qonuniylikni ta'minlashning amaliyoti”** tahlil qilingan. Mazkur bobdagi izlanishlar tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida qonuniylikni ta'minlash, sudga qadar ish yurituv bosqichida isbotlashni amalga oshirishda qonuniylikka rioya etilishini ta'minlash, sudga qadar ish yurituv bosqichida protsessual majburlov choralarini qo'llashda qonuniylikni ta'minlanishi va sudga qadar ish yurituv organlari tomonidan shaxsni jinoyat ishi bo'yicha gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilishda qonuniylikka rioya etilishi xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan.

Dissertantning o'rganishlar asosida jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va hal etish bo'yicha amaliyotni o'rganish jinoyat ishini qo'zg'atishda qonuniylik talablarining buzilishi jinoyatga oid xabarlarni qabul qilish bosqichida ham (jinoyatlarni hisobga olishdan yashirish; sodir etilgan jinoyat to'g'risidagi xabarlarni soxtalashtirish; turli bahonalar bilan arizani qabul qilishni rad etish), jinoyatga oid xabarlarni tergovga qadar tekshirish va tegishli protsessual qaror qabul qilish jarayonida ham (jinoyatning aniq alomatlari bo'lganda jinoyat ishini qo'zg'atishni asossiz ravishda rad qilish; tergovga qadar tekshiruv materiallari va qabul qilingan qarorlarni soxtalashtirish; jinoiy jazolanadigan qilmishni ma'muriy huquqbuzarlik sifatida kvalifikatsiya qilish; tergovga qadar tekshiruv muddatini o'tib ketishi, protsessual qarorni o'z vaqtida qabul qilmaslik; tergovga qadar tekshiruv bosqichida JPK bilan ruxsat etilmagan tergov va boshqa harakatlarni o'tkazish; asossiz ravishda jinoyat ishini qo'zg'atish) holatlari mavjudligi aniqlangan.

Tergovga qadar tekshiruv bosqichida yuqorida keltirilgan qonunbuzarliklarning oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslik maqsadida JPKda tergovga qadar tekshiruv organi rahbarining qonuniylikni mustahkamlash bo'yicha faoliyatini protsessual asoslarini kengaytirish va quyidagi vakolatlar berilishi taklif etilgan: jinoyatga oid xabarlarni tergovga qadar tekshirish bo'yicha tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs, surishtiruvchi, tergovchiga topshiriqlar berish; tergovga qadar tekshiruv materiallarini bir tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs, surishtiruvchi, tergovchidan boshqasiga o'tkazish; tergovga qadar tekshiruvning mohiyatiga ko'ra, shuningdek jinoyatlarning oldini olish va bartaraf etish choralarini ko'rish bo'yicha ko'rsatmalar berish.

Isbotlashni amalga oshirishda qonuniylikka rioya etish, asosan dalillarni aniqlash, to'plash, tekshirish va baholashda tergovchining xolis bo'lishini ham o'z ichiga oladi, zero tergov harakatlarini o'tkazishdan asosiy maqsad – ish bo'yicha obyektiv haqiqatni aniqlashdir. Demak haqiqatni aniqlashda qonuniylikka rioya etish shart. Tergovchi dalillarni faqat qonunda belgilangan tergov harakatlarini o'tkazishi yo'li bilan to'plashi va JPKda tartibga solingan manbalardan olishi mumkinligi bilan

bir qatorda qonunchilik normalarida belgilangan barcha tartib-taomillarga va muddatlarga qat'iy ravishda rioya etishi shart.

So'roqdagi taktik usullarni noqonuniyligi turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Jumladan, tergovchi taktik nuqtai nazardan so'roq qilinayotgan shaxsning huquq va majburiyatlarini o'z vaqtida yoki umuman tushuntirmasligi noqonuniydir. Shu bilan birga so'roq qilinuvchini aldash bilan bog'liq taktik usullarni ham noqonuniy deb baholash darkor. Yolg'on qanday maqsadda va shaklda qo'llanilmasin o'z mohiyatiga ko'ra ahloq normalariga ziddir va tergov etikasi nuqtai nazaridan qo'llash mumkin emas. Bu esa JPKning 10-bobi quyidagi tahrirdagi 102¹-modda bilan to'ldirish taklif etiladi:

“102¹-modda. So'roq qilishda noto'g'ri taktik usullarni qo'llash mumkin emasligi

Jinoyat ishlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasini o'tkazish jarayonida yolg'on, shaxsning huquqlari va erkinliklarini poymol etuvchi ma'lumotlardan foydalanish, hamda ahloq-odob qoidalariga zid bo'lgan usullarni qo'llash ta'qiqlanadi”.

Jinoyat-protsessual qonunning o'zida tushunmovchilik va mavhum norma bo'lganligi holatida, huquqni qo'llovchilardan qonuniylikka rioya etilishini qanday qilib talab qilish mushkul masala. Shu sababli JPKning 158-162- moddalariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim, qonun normalari mavjud tergov amaliyotini muvofiqlashtirish kerak. Tintuv va olib qo'yish tergov harakatlarini protsessual tartibga solinishida mavjud mavhumliklar va tushunmovchiliklarni bartaraf etish, shuningdek qonuniylik buzilishining oldini olish maqsadida amaldagi JPKning 20-bobini yangi tahrirda **“20-bob. Tintuv. “20¹-bob. Olib qo'yish”** sifatida qaytadan shakllantirish maqsadga muvofiq.

Dissertantning ta'kidlashicha, shaxsning Konstitutsiyada ko'rsatilgan shaxsiy daxlsizlik huquqini ta'minlash maqsadida “gumon qilish” va faktik ma'lumotlarni tekshirish tushunchalari orasidagi o'zaro chegarani belgilab olish zarur. Sudga qadar ish yurituvchi amaliyotini tahlili shuni ko'rsatadiki, “guvohni fosh qilish”, “gumon qilinayotgan shaxs”, “sudga qadar ish yurituvchi organlarida qiziqish uyg'otgan shaxs”, “surishtiruv organlari nigohiga tushayotgan shaxs” kabi tushunchalarni keng qo'llanilayotganligi va ularning protsessual qonunchilikda aks ettirilmaganligi, mazkur shaxslarning huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, muallifning fikricha, “gumon”, “gumon ostiga olish” kabi yangi tushunchalarni shakllantirish va JPKga joriy etish lozim.

Gumon qilinuvchi deganda aniq va asoslangan ma'lumotlar asosida shu jinoyatni mazkur shaxs tomonidan sodir etilganligini gumon qilish to'g'risida ishonchli taxminlar mavjud bo'lgan shaxsdir. Shaxsni gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar bevosita yoki bilvosita ta'rifga ega bo'lgan dalillar yig'indisi yoki tizimi sifatida namoyon bo'lib, ular asosida tegishli shaxsning jinoyat sodir etganligi to'g'risida shubha holatining mavjudligi, shaxsga nisbatan tegishli tergov harakatlari o'tkazish uchun asos bo'ladi va uni ish bo'yicha gumon qilinuvchi sifatida jalb qilinishini taqozo etadi. Shaxsni gumon qilinuvchi sifatida e'tirof etish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror qaror chiqaradi. Ana shu qaror chiqarilgan

vaqtdan boshlab gumon qilinuvchi shaxs jinoyat protsessual huquqining subyekti hisoblanadi va muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Jinoiy-protsessual faoliyatni amalga oshirish, muayyan huquq va majburiyatlarning mavjudligi, jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari bilan o'z tashabbusi yoki qonun kuchi bilan jinoiy protsessual munosabatlarga kirishish bularning barchasi gumon qilinuvchi jinoiy protsessual faoliyatni subyekti sifatida xarakterlovchi belgisi hisoblanadi. Gumon qilinuvchi shaxsni huquq va qonuniy manfaatlarini buzish bevosita jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarni ushbu shaxslarga nisbatan ochiqdan-ochiq hurmatsizlik harakatida bo'lib, u faol amalga oshirilishi yoki ushbu shaxsni huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlamaslikda namoyon bo'lib va u harakatsizlikda ifodalanishi mumkin. Ushbu harakatlar gumon qilinuvchini huquq va qonuniy manfaatlariga qarshi qaratilgan bo'lib, undagi shaxsga xos bo'lgan qadriyatlarni inkor etuvchi ta'rifda ifodalanadi.

Ilmiy izlanishning 3-bobi **“Sudga qadar ish yurituvda qonuniylikni ta'minlash bo'yicha xorijiy tajriba va undan mamlakatimizda dastlabki tergovda qonuniylikni ta'minlashni takomillashtirishda foydalanish”** deb nomlangan bo'lib, uning doirasida xorijiy davlatlarda sudga qadar ish yuritishda qonuniylikni ta'minlashni huquqiy tartibga solinishi va ta'minlash tajribasi o'rganilgan, sudga qadar ish yurituvda qonuniylikni ta'minlashni mustahkamlash usullari va yo'llarini ishlab chiqishga harakat qilingan.

Rivojlangan xorij mamlakatlaridagi jinoyat protsessida sudning vakolat doiralari, shaxs huquqlarining protsessual kafolatlari, isbotlash jarayoni, ayblanuvchi va ayblovchining protsessual holatining shakl va toifalari turlichadir.

Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Yaponiya va boshqa davlatlarga ziddiyatli xarakterga ega bo'lgan aralash protsess xosdir. Ularda jinoyat sudlov ishlarini yuritishning demokratik prinsiplari (og'zakilik, oshkoralik, tortishuv, bevositalik) amal qilishi bilan bir vaqtning o'zida tarixiy jihatdan ancha avvalgi jinoyat protsessi shakllarining (masalan, inkvizitsion) ba'zi tarkibiy qismlarini saqlab qolgan (masalan, bu holat ayblanuvchi va himoya tomonining protsessual huquqlaridagi ba'zi cheklovlarda namoyon bo'ladi).

Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Avstriya, Yangi Zelandiya va boshqa anglo-sakson huquq tizimidagi davlatlarda esa bugungi kunda jinoyat protsessining tortishuv shakli keng tarqalgan.

Angliyaning jinoyat protsessida qonuniylikni ta'minlash tortishuv shaklida tashkil etilib, ayblov funksiyasi (sud huzurida jinoyat ishini qo'zg'atish, ayblov dalillarini to'plash, sudda ayblovni quvvatlash); himoya funksiyasi (oqlovchi dalillar to'plash, sudda himoyani amalga oshirish); odil sudlov funksiyasi (taraflarning sud muhokamasi qoidalariga rioya etishlarini ta'minlash, aybdorlik masalasini hal etish, jazo chorasini aniqlash). Zamonaviy ingliz protsessidagi umumfuqaroviy ayblov konsepsiyasiga ko'ra har qanday yuridik va jismoniy shaxslarga jinoiy ta'qibni amalga oshirish huquqi berilgan. Umumfuqaroviy ayblov doktrinasiga ko'ra, jinoyat sodir etish yoki uni tayyorlashda gumon qilish uchun “o'rinli taxminlar” mavjud bo'lganida, mansabdor shaxslar bilan bir qatorda xususiy shaxslar ham shaxsni hibsga olish huquqiga egadirlar. Bunday keng vakolatlarning berilishi bugungi kunda

turli suiiste'molliklarni keltirib chiqarmoqda. Buyuk Britaniya Ichki ishlar vazirligining ma'lumolariga qaraganda, mamlakatda har yili 50 mingdan ziyod noqonuniy hibsga olish hollari ro'y beradi.¹

Bunday suiiste'molliklarni bartaraf etish va shaxsning hibsdan saqlanayotganligining qonuniyligini tekshirish maqsadida Angliyada "xabeas corpus" (habeas corpus) nomi bilan mashhur bo'lgan jarayondan keng foydalaniladi.² Unga ko'ra hibsga olingan shaxs yoki uning nomidan ish ko'ruvchi har qanday boshqa shaxs hibsga olishning noqonuniyligi yuzasidan ariza bilan sudga murojaat qilishga haqlidir. Bu holatda hibsga olingan shaxs sud huzuriga keltiriladi va uni hibsga olinishining qonuniyligi masalasi himoyachi ishtirokida ko'rib chiqiladi.

AQShda jinoyat ishi bo'yicha ish yurituvining aniq boshlanish vaqti, shuningdek, jinoyat ishini qo'zg'atish kim tomonidan, qanday rasmiylashtirilishi AQSh jinoyat-protsessual qonunchiligi va boshqa huquqiy manbalarda rasman belgilanmagan. Shuning uchun amaliyotda muayyan ish bo'yicha ish yurituvini, sudga qadar ish yurituvini jinoyat haqida xabar kelib tushgan va u qayd etilgan (odatda, juda murakkab va ko'p tarmoqli tizimga ega bo'lgan politsiya organlari tomonidan³) paytdan boshlanadi, deyilishi ommalashgan. Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat belgilari bo'lgan qilmish yoki hodisa haqidagi ariza va xabarlar (cleared crimes) tegishli tekshiruv va rasmiylashtirishdan so'ng sud muhokamasida dalil sifatida foydalaniladigan ma'lumotlarni aniqlash, qayd etish, tekshirish va baholash harakatlarini yuritishga asos bo'ladi. Qayd etilgan paytdan boshlab, jinoyat belgilariga ega bo'lgan qilmish yoki hodisa AQShda "politsiyaga xabar qilingan jinoyatlar" (crimes reported to the police) yoki "ro'yxatga olingan jinoyatlar" (reported crimes) deb nomlanuvchi holatlar qatoriga kiritilib, ular haqidagi ma'lumotlar statistik hisobotlarga kiritiladi. Bunday turdagi harakatlar tezkor-qidiruv faoliyati va biz tergov harakatlari deb atashga odatlangan harakatlarning barchasi, shuningdek protsessual majburlov chorolari (majburiy keltirish, ushlab turish, qamoqqa olish, tintuv, olib qo'yish va boshqalar) qo'llashni o'z ichiga oladi. Sudga qadar ish yuritishda jinoiy ta'qibni qo'zg'atish, tergovni tugatish, tamomlash va boshqa qarorlar qabul qilinadi. Shu bilan birga AQShda sudga qadar ish yurituvida qonuniylikni ta'minlash mazkur jarayonlarning shaffofligi orqali ta'minlanadi.

Fransiya jinoyat protsessining ilk bosqichi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidan farqli ravishda surishtiruv hisoblanib, u jinoiy ta'qib (ommaviy da'vo) qo'zg'atilgunga qadar davom etadi. Bu bosqichda sud politsiyasi qonunning buzilganlik holatlarini aniqlaydi, u haqda dalillar to'playdi va ushbu huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarni qidirish choralarini ko'radi. Surishtiruv prokuratura rahbarligi ostida o'tkazilib (JPKning 12,13-moddalar), unda faqat protsessual harakatlar amalga oshiriladi.⁴ Jinoiy ta'qib qo'zg'atilgunga qadar surishtiruv bosqichida quyidagi harakatlar o'tkazilishi mumkin: 1) joyga chiqish va

